


AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA CHET TILI O'RGANISHDA
MULTIMEDIA VOSITALARINING AHAMIYATI

Xabibullayeva Irodaxon

Andijon davlat chet tillari instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedra o‘qituvchisi

Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi

“Tajrima nazariyasi va amaliyoti:rus tili”
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va chet tilini o‘rganishda multimedia vositalarining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan birga, o‘qitish va o‘rganish jarayonlari sezilarli darajada o‘zgargan. Multimedia vositalari, ya’ni matn, audio, video, grafik va interaktiv elementlarning kombinatsiyasi, o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Chet tilini o‘rganishda bu vositalar talaffuzni, tinglash va tushunishni, shuningdek, vizual va kinestetik o‘rganish usullarini rivojlantirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalarining interaktivligi o‘rganishning faol va samarali bo‘lishini ta’minlab, tilni amaliy ravishda egallashda katta ahmiyatga ega. Bu usul nafaqat o‘quvchilarning e’tiborini jalg qiladi, balki ular o‘rganilayotgan tilni turli vaziyatlarda va kontekstlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, multimedia vositalari yordamida o‘quvchilar o‘z tezligi bilan o‘rganish jarayonini boshqarishlari, shaxsiy xatoliklardan o‘rganishlari va o‘rganilayotgan tilni jonli va real vaqt rejimida tushunishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, Chet tili o‘rganish, Multimedia vositalari, Innovatsion ta’lim, Onlayn platformalar, AR texnologiyalar

Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to‘sqliarga duch keladi va shu to‘sqliarni yengib o‘tish mobaynida yana yangi ixtiolar vujudga kelaveradi. Lekin, hayot tajribalaridan ma’lumki, ko‘pincha yangi kashfiyot ma’lum bir muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladi.

Axborot texnologiyalarida juda katta yutuq va o‘zgarishlar amalga oshdi. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi bu sohadagi xizmat qilish uslubini tubdan o‘zgartirdi. Axborot texnologiyalari (AT) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning bir qismini tashkil qiladi. AT tizimi — odatda, axborot tizimi, aloqa tizimi yoki aniqrog‘i, kompyuter tizimi, jumladan, barcha apparat, dasturiy ta’minot va periferik jihozlar — cheklangan AT foydalanuvchilari



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

guruhi va AT loyihasi tomonidan boshqariladigan tizim va odatda AT tizimini ishga tushirish va joriy etishni nazarda tutadi.¹

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagananidek:"Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari,eng avvalo, shu davlatda yaratilgan yaratilgan intellectual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"²

.Bugungi kunda til o'rganish biz uchun ko'p imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Moliyaviy yoki ijtimoiy jihatdan qat'iy nazar chet tilida odamlar bila "haqiqiy" aloqa qilishimizga, ularni tushunishimizga yordam beradi. Dunyo tobora globallashib borayotgan va ikki tilni bilish, shunchaki insonlar uchun oddiy qiziqish emas albatta bu zamon talabiga aylanmoqda. Qo'shimcha til o'rganish nafaqat shu soha vakillari uchun balki, boshqa kasb egalari uchun ham zarur. Moliyaviy daromaddan tashqari tilni o'rganish sayohatchilarga noyob tajriba taqdim etadi.³

Tilshunos olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki qo'shimcha til o'rganish miyani rivojlantiradi. Ikki va undan ortiq til o'ganish natijasida inson xotirasi faollashadi. Radio eshtish, televizor tamosha qilishdan ko'ra til o'rganish miya uchun foydali funksiya hisoblanadi. Necha yoshda bo'lishimizdan qat'i nazar chet tilini o'rganish aqliy faoliyatimizga ijobiy tasir o'tkazadi. Chet tillarini o'rganishni kutilmagan afzalliklaridan biri shuki, til o'rganish bizni hayotimizda har bir jabhada g'alabaga erishishimiz uchun bizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Taqdiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rgangan insonlarni dunyo qarashi keng bo'ladi. Shu shababli ularda har qanday muammoli vaziyatlarni oson hal qila olish qobiliyati shakillanadi. Chet tilini o'rgangan kishilar boshqalardan farqli o'laroq erkin va ravon fikrlaydi. Chet tilini o'rganishning yana bir foydali tomoni shundaki, chet tillarini o'rganish insonlarni tahliliy qobiliyatini yuqori darajada oshishiga sabab bo'ladi. Ko'p til o'rgangan kishilarning suhbati juda ham qiziqrarli va maroqli bo'lishi tajribalar orqali isbotlangan. shu jumladan tanqidiy ham. Multimediy vositalari (multimedia – ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotga zamонавиъ axborotlar texnologiyasidir. Multimedia (multimedia ko'p muhitlilik) vositalari bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan juda turli-tuman muxitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya ishlatgan holda kompyuter bilan muloqat qilish imkonini beradi. Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual haqiqiy) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u erda avj olayotgan xodisalarda faol ishtirot etadi; shu bilan

¹ Мухаммадиев, С. (2023). Мультимедийные технологии в обучении иностранным языкам.

² Янги Ўзбеки стон стратегиги яси [М атн] / Ш.М.Мирзиёев. -

Тошкент: "0 '2ъек131оп" наш риёти, 2021.237 б

³ Беспалько, В.П. «Педагогика и прогрессивные технологии обучения». М.: Наука, 2002.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi. Multimedia vositalari ga quyidagilar kirdi: ma’lumotlarni audio (nutqli) va videokiritish va chiqarish qurilmalari; yuqori sifatli tovushli (sound) va video (video) platalar, videoqamrash platalar (video grabber), ular videomagnitofondan yoki videokameradan tasvirni oladi va uni SHK ga kiritadi; yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta videoekranli akustik va videoqabul qiladigan tizimlar, hozirdayoq keng tarqalgan skanerlar (chunki ular kompyuterga bosma matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkonini beradi); yuqori sifatli printerlar va plotterlar.

Ma’lumki, mustaqil davlatimizning har bir o‘quvchi va talabasi jahon andozalariga mos ravishda tayyorlanishi zarur. Yoshlarning puxta bilim olishi xamda zamonaviy soxalardan fan asoslarini chuqur egallashlari birinchi navbatda ta’lim berish samaradorligiga bog’liq. Uzluksiz ta’lim jarayonida demokratik tamoyillarning amal qilishi o‘quvchilarning aql-idrokiga ishonch, ularning mustaqil fikrlashiga imkon yaratish sinf va sinfdan tashqari faoliyatidagi ijodkorligi va tashabbuskorligini rag’batlantirish tarzida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi fazilatlarning o‘quvchi shaxsida namoyon bo‘lishi uchun ta’lim tizimimizga insonparvarlik va demokratiya g’oyalariga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt Ichida yuksak natijalarga erishishdir. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy talimda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalilanadi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.⁴

Dunyo globalizatsiya va texnologik taraqqiyot chegara va to‘sirlarni yo‘q qilayotgan bir davrda, bir nechta tillarni bilish faqat foydali malaka emas, balki zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, onlayn til o‘rgatish platformalari muhim rol o‘ynaydi.

⁴ Вигдорова, Т.Н. «Методы развития инновационных технологий в системе образования». – М.:Просвещение, 2018.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ular bilimlarni egallahsga imkoniyat yaratib, o‘qishni qulay, moslashuvchan va qiziqarli qiladi. Bu platformalar nafaqat yangi ko‘nikmalarni egallah vositalari, balki madaniyatlar o‘rtasida haqiqiy ko‘prik bo‘lib, muloqot va tushunishni yangi ufqlarga olib chiqadi. Onlayn ta’limning asosiy xususiyatlaridan biri uning mavjudligi hisoblanadi. An’anaviy kurslar yoki repetitorlar vaqt va moliyaviy xarajatlarni talab qilsa, onlayn platformalar har qanday vaqtida va joyda o‘rganishni imkoniyatini beradi. Buning uchun faqat kompyuter yoki mobil qurilma va internetga kirish kerak. Bu, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchilar uchun muhim, chunki shaxsiy ta’lim imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Lekin faqat mavjudlik emas, balki onlayn platformalar zamonaviy texnologiyalarni ham ishlاتadi, masalan, interaktiv darslar, audio- va video materiallar, o‘yin elementlari, bu esa o‘qish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Masalan, Duolingo kabi platformalar foydalanuvchiga o‘yin shaklida vazifalarni bajarishni taklif qiladi, bunda har bir yangi so‘z yoki ibora "bilim darajalari" ni ochadi. Bu o‘qishni monotonlikdan chiqaradi va yanada rag‘batlantiruvchi qiladi. iTalki yoki HelloTalk kabi platformalarda tilni ona tilida gapiruvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlari esa gapirish ko‘nikmalarini yaxshilashga va to‘g‘ri talaffuzni o‘rganishga yordam beradi. Onlayn platformalarning yana bir afzalligi shundaki, ular shaxsiylashtirish imkoniyatini taqdim etadi.⁵

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, axborot texnologiyalari va chet tili o‘rganishda multimedia vositalari katta ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, ya’ni audio, video, grafikalar va interaktiv dasturlar orqali til o‘rganish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Bu vositalar nafaqat o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, balki tilni amaliyotda ishlatalish imkoniyatlarini yaratadi. Multimediya texnologiyalari yordamida talabalar lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishi, madaniyatlarni o‘rganishi va tildagi muloqotni yaxshilashlari mumkin. Shuningdek, bu vositalar o‘quvchilarga individual o‘rganish temposti va uslubini tanlash imkonini beradi, bu esa o‘rganish jarayonini yanada samarali va qulay qiladi. Umuman olganda, multimedia vositalarining ta’limda qo‘llanilishi chet tili o‘rganishdagi yangi imkoniyatlarni ochib beradi va o‘quvchilarga ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishda yordam berad

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беспалько, В.П. «Педагогика и прогрессивные технологии обучения». М.: Наука, 2002.
2. Махмутов, М.И. «Современные технологии в образовании».
3. Вигдорова, Т.Н. «Методы развития инновационных технологий в системе образования». – М.: Просвещение, 2018.

⁵ Бектемиров, М. (2021). Разработка интерактивного обучения с использованием информационных технологий

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

4. Мухаммадиев, С. (2023). Мультимедийные технологии в обучении иностранным языкам.
 5. Юсупов, М. (2021). Роль информационных технологий в современном образовании. Ташкент
 6. Ходжаева, Л. (2019). Инновационные методы в языковом образовании: использование мультимедийных средств. Андижан
 7. Абдурахманов, С. и Исламов, А. (2020). Влияние ИКТ на эффективность изучения языка. Ташкент: 2020
 8. Бектемиров, М. (2021). Разработка интерактивного обучения с использованием информационных технологий.
 9. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). Boshlang 'ich sinflarda multimedialar asosida darslarni tashkil etish. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 519-521.
 10. Zulfiya, S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 188-193.
 11. Янги Ўзбеки стон стратеги яси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "0 '2Бек131оп" нашриёти, 2021. - 237 б
- 